

CHET TILINI O'RGATISHDA ILG'OR USULLARDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

G. Juraquliy¹, M. Shamsiddinov²

Annotatsiya:

Maqolada chet tilini o'rgatishda ta'limning eng zamonaviy usullaridan foydalanish, ularning samaradorligi, afzalliklari to'g'risida kuzatuvlar natijalari keltirilgan. Shunga asoslanib, talabalarga chet tilini o'rgatishda ilg'or usullaridan foydalanish yo'llari bo'yicha amaliy tavsiyalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ilg'or usullar, faollik, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi, kichik guruh, jamoada ishlash, muloqot oldi, muloqot qoidalari, kommunikativ usullar

doi: <https://doi.org/10.2024/9rcjta67>

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda talabalarining o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda. Bu kabi metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o'rganilayotgan mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o'z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g'oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga, rag'batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi (pedagog)lar tomonidan interfaol metodlarning o'rinli, maqsadli, samarali qo'llanilishi ta'lim oluvchi (o'quvchi, talabalar)da muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g'oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Shunga ko'ra, interfaol o'qitish ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – domla, talaba va talabalar o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in savol-javoblar, hazil o'yinlar ta'limga qo'yilgan standartlarni bajarilishiga olib keladi.

Chet tillarni o'rganishga (o'qitishda, o'rgatishda) ham, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, maqsadga ko'ra turli metodlar asosida dars jarayonlari olib borilsa, natija yuqori bo'ladi. O'qituvchining metodik salohiyati qancha yuqori bo'lsa, ya'ni maqsadni to'g'ri qo'yib, unga mos metodni qo'llay olsa, dars maqsadi albatta amalga oshadi va o'quvchilar darsda o'rgangan bilimlaridan, unda orttirgan yangi ko'nikma va malakalardan mamnun bo'ladilar.

Bugungi kunda chet tilini o'rganishning an'anaviy usullarining zaif tomonlari sababli til ko'nikmalarini egallashda bir qancha qiyinchiliklarni yuzaga keltirayotganligi kommunikativ o'yinlardan foydalanib chet tilini o'rganishni talab qilmoqda. Demak, chet tilini o'qitishni isloh qilish va til

¹ Gulnoza Juraquliy, SamDCHTI o'qituvchisi

² Shamsiddinov M., SamDCHTI o'qituvchisi

ko`nikmalarini takomillashtirish borasida hali ko`p ish qilish kerak, desak xato bo`lmaydi. Shu sababli, har qanday tilni, chet tilini o`rgatishning ilg`or zamonaviy usullarini qo`llash, ularni muhokama qilish va ulardan o`rinli foydalanish hamda chet tili darslarida shu yo`nalishdagi o`yinlardan foydalanish talabalarni til o`rganishga bo`lgan auditoriya faoliyatiga jalb qilishning eng yaxshi yo`llaridan biri hisoblanadi. Til o`yinlari chet tilini o`rgatishdagi eng qimmatli va samarali usullardan biri sifatida ko`plab g`arb o`qituvchilari tomonidan uzoq vaqt davomida qo`llanilgan [Jack Richards, Harmer, Jeremy, Johnson, K. va b.].

Chet tilini o`rganish o`ziga xos jarayon bo`lib, uning samaradorligi quyidagilarga bog`liq: – chet tilini o`qitish orqali ta`lim mazmunini tashkil qilgan aspektlarni, nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, gapirish, o`qish va yozuv) ni yaxlit va izchillikda lingivistik kompetensiyaning asosi bo`lgan nutqiy kompetensiya tarkibida o`rganish;

- lingivistik nutqiy, til, pragmatik, sotsio-lingivistik va o`quv-kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish;

- fanlararo integratsiya (o`quv fanlarining o`zaro aloqadorligi) ni tashkil qilish;

- nutq faoliyati turlari (o`qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) hamda shakllari (og`zaki va yozma nutq) orasidagi o`zaro bog`liqlikni ta`minlash maqsadida rivojlantiruvchi mushtarak tizimni ishlab chiqish;

- talabalarga madaniyatlararo muloqotga xos bo`lgan urf-odatlarini singdirish bilan o`z xalqi madaniyatini chuqur anglab yetishga o`rgatib borishdan iborat.

Zamon talablariga mos holda chet tillarini mukammal o`rganish har bir o`sis kelayotgan yosh uchun juda ham muhim. Chet tillarni bilish orqali yoshlarimiz xorijlik tengdoshlari bilan bimalol ilm-fanda raqobatlasha oladi, jahon sahniga chiqa oladi.

Ta`limdagi ilg`or usullarning o`ziga xos jihatlaridan biri ta`limiy o`yinlar va ularning zamon, kundalik hayotga mos keladigan, interfaol turlari hamda samara berish darajasi hisoblanadi.

Pedagogik jarayondagi o`yin juda dolzarb omil hisoblanadi. Chunki o`yin o`z-o`zini ifodalash, o`z-o`zini belgilash, o`zini o`zi bohalash, o`zini o`zi boshqarishning eng samarali usullaridan biridir. So`nggi o`n besh yil ichida bizning psixologiya va pedagogikamizda bolalar o`yini muammolari bo`yicha individual tadqiqotlar olib borildi. Ular asosan o`yinining eng qadimgi bosqichlariga, o`yinda bolalarning ijtimoiy munosabatlari, intellektual rivojlanishda o`yin ta'sirining ayrim masalalari bilan bog`liq. O`yin - bu murakkab va ko`p qirrali hodisa.

Yuqorida bildirilgan mulohazalardan kelib chiqib, chet tiliga o`rgatish mashg`ulotlarida quyidagi funksiyalarni tanlashni tavsiya qilamiz: 1. Ta`lim funksiyasi - xotira, e`tibor, idrok va h. Umumiy o`quv ko`nikmalari va ko`nikmalarini ishlab chiqish; 2. O`yin-kulgi funksiyasi – o`quvxonalarda qulay muhitni yaratish, mashg`ulotning o`zgarishi. 3. Aloqaviy funksiya - talabalar uyushmasi, hissiy aloqalarni o`rnatish, aloqa ko`nikmalarini shakllantirish. 4. Yengillik funksiyasi - hissiy (jismoniy) kuchlanishni olib tashlash, asab tizimi yaxshilash, qizg'in o`qitish. 5. O`z-o`zini ifoda etish funksiyasi - talabaning o`yindagi ijodiy qobiliyatlarni amalga oshirish. Bu funksiyalar talabadagi til o`rganish istagini, uning bu yo`nalishdagi salohiyatini yanada ochib beradi.

Chet tilini o'rganishga talabalarda muloqot faoliyatini olib borish qobiliyatini shakllantirishda va ularni jonli muloqotda qo'llash, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda quyidagi faoliyatlar qo'l kelishi va samara berishligi aniqlandi: 1. Muloqotgacha faoliyat. 2. Muloqot davridagi faoliyat. 3. Muloqotdan keyingi faoliyat. Bunday faoliyatlar har birining o'ziga xos tomoni bo'lib, biri ikkinchisiga xizmat qiladi. Masalan: muloqot oldi faoliyat talabalardan muloqot birliklari - so'z, so'z birikmasi, gap, sodda, qo'shma gaplarning qo'llanilishi haqidagi dastlabki bilimlarni bo'lishini taqozo etadi.

Asosiy e'tibor talabalar kommunikativ faoliyatini o'stirishga xizmat qiluvchi barcha faoliyatlarni o'ziga mujassamlashtirgan kommunikativ o'yinlar orqali talabalar nutqining muloqotga layoqatliligi, muloqot etikasi kabi jihatlarni shakllantiruvchi ko'nikma va malakalar hosil qilishga urinishdir, chunki, bunday bilimlarsiz muloqot olib borishning boshqa faoliyat turlarini amalga oshirib bo'lmaydi. Bunday faoliyatlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi talabalardan bir qator til mashqlarini bajarishlarini tavsiya etadi va bunga yetishgandan so'nggina ikkinchi faoliyat turi, ya'ni muloqot davomida olib boriladigan faoliyatni boshlashga kirishadi.

Talabalar muloqot faoliyatini shakllantirishda asosiy omillardan biri obdon o'ylanib tuzilgan kommunikativ o'yinlar tizimidir. Bunday o'yinlar tizimi uch xil o'yinlarni o'z ichiga oladi.

1. Til ko'nikmalarini shakllantiruvchi o'yinlar
2. Nutq ko'nikmalarini rivojlantiruvchi o'yinlar
3. Muloqot ko'nikmalarini shakllantiruvchi, o'stiruvchi o'yinlar.

Har bir o'yin turining o'ziga xos o'rni va kommunikativ faoliyat olib borishda o'ziga xos ahamiyati bor.

Kommunikativ o'yinlar talabalarda muloqot birliklari bo'lgan so'z birikmalari, gaplar (sodda, qo'shma gaplar) ning qurilishi bilan, ularning kesimlarida qo'llaniladigan fe'l shakllarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan barcha faoliyatlarini o'z ichiga oladi. Bu birinchi bosqichda muhim ahamiyatga ega. Demak, talabalar muloqot faoliyatini o'stirishda til mashqlari muloqot oldi faoliyatini olib borishda muhim omil bo'lib sanaladi. Talabalar muloqot faoliyatini o'stirishning ikkinchi bosqichida "muloqot davomidagi faoliyatlar muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Boltaqulova G. *Chet tilini o'rganishga kommunikativ yondashuvning afzalliklari*. – Samarqand, SamDCHTI, 2021.
- [2]. Jalilov J. *Chet tili o'qitish metodikasi*. – T., 2012.
- [3]. Sanaqulov Z. *Chet til o'qitish metodikasida zamonaviy metodlar*. – T., 2021. <https://cyberleninka.ru/article>.
- [4]. Shokarimova, K. A. (2020). *Pedagogik qobiliyat va pedagogik mahoratning talimtarbiya berishdagi ahamiyati*. *Science and Education, (Special Issue 2)*.
- [5]. *Easy ways of learning English*
- [6]. N Xamidova, G Bobonazarova - *Conference Proceedings: Fostering Your Research ...*, 2024
- [7]. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=N06yu0YAAAAJ&citation_for_view=N06yu0YAAAAJ:UeHWp8X0CEIC